

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 1
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

**UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BOLALARNI O'QITISH
JARAYONIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

Inogamova Dilfuza Raxmatullayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, professor (PhD)

Vorisova Zuhra Raufovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda sog'lig'i sababli uzluksiz ta'limdan chetda qolayotgan bolalarning psixologik va jismoniy rivojlanish xususiyatlari, ularning ta'lim ehtiyojlari hamda raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari to'g'risida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli davolanish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, masofaviy ta'lim, inklyuziv pedagogika, individual yondashuv, raqamli ta'lim muhiti.

**ТЕОРЕТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ, НУЖДАЮЩИХСЯ В
ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ**

Иногамова Дилфуза Рахматуллаевна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, профессор (PhD)

Ворисова Зухра Рауфовна

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, магистрант

Аннотация

В статье раскрываются теоретико-педагогические основы применения современных образовательных технологий в процессе обучения детей, нуждающихся в длительном лечении. Проанализированы психолого-физиологические особенности данной категории обучающихся, их образовательные потребности, а также возможности организации учебного процесса с использованием цифровых и дистанционных технологий. Представлены выводы автора и практические рекомендации по повышению качества образовательного процесса.

Ключевые слова: длительное лечение, современные образовательные технологии, дистанционное обучение, инклюзивная педагогика, индивидуальный подход, цифровая образовательная среда.

**THEORETICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING MODERN EDUCATIONAL
TECHNOLOGIES IN TEACHING CHILDREN REQUIRING LONG-TERM MEDICAL
TREATMENT**

Inogamova Dilfuza Raxmatullayevna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Professor (PhD)

Vorisova Zuhra Raufovna

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Master's Student

Abstract

This article examines the theoretical and pedagogical foundations of applying modern educational technologies in teaching children who require long-term medical treatment. The study analyzes the psychological and physical characteristics of this group of learners, their educational needs, and the possibilities of organizing the learning process through digital and distance learning technologies.

Keywords: long-term medical treatment, modern educational technologies, distance learning, inclusive

pedagogy, individualized approach, digital learning environment.

Jahon miqyosida sog'lig'i sababli uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash masalasi inklyuziv ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi hamda UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Ta'lim hamma uchun" tamoyillarida har bir bolaning sog'lig'i, ijtimoiy holati yoki jismoniy imkoniyatlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Shu nuqtai nazardan, uzoq muddatli davolanish davrida bolaning ta'limdan uzilib qolmasligi, uning intellektual rivojlanishi va ijtimoiy faolligini saqlab qolish zamonaviy pedagogika oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashayotgan bugungi sharoitda ta'limning masofaviy, gibril va individual shakllarini qo'llash orqali mazkur toifadagi bolalarning ta'lim ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda.

Uzoq muddatli davolanish jarayoni nafaqat bolaning jismoniy holatiga, balki uning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Muntazam ta'lim muhitidan uzoqlashish natijasida o'quv motivatsiyasining pasayishi, tengdoshlari bilan muloqotning cheklanishi hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Shu sababli zamonaviy ta'lim texnologiyalarini pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini davom ettirishiga, balki ularning ruhiy barqarorligini saqlash va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga ham xizmat qiladi.

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi, pedagogik-huquqiy va moddiy-texnik baza tubdan yangilandi, yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha tizimli ishlar tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis qatnashchilariga qaratgan Murojaatnomasida [1] ta'kidlaganidek, "...avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash zarurligi alohida gapirildi". Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'qituvchilar qayta tayyorgarlik kurslarida, doimiy harakatdagi o'quv kurslarida o'z malakalarini oshirib bordilar. Shu bilan bir qatorda, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishni yo'lga qo'yish dolzarb vazifalardan biri bo'lib yuzaga chiqdi.

Bugungi kunda Respublikamizning maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab ta'limi muassasalarining muhim vazifalaridan biri sog'lig'i tufayli uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarning uzluksiz va sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash hamda ushbu jarayonning nazariy asoslari va metodik ta'minotini takomillashtirish hisoblanadi. Mazkur toifadagi bolalarning ko'pchiligi ma'lum sabablarga ko'ra uzoq muddatli davolanishga muhtoj, kasalligi tufayli darslarga qatnasha olmaydi yoki uyda yakka tartibda o'qimoqda, ayrimlari esa batamom ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Bu holat ularning bilim darajasining pasayishiga, ijtimoiy moslashuvining sustlashishiga hamda psixologik muammolarning yuzaga kelishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi "Aholiga gematologik va onkologik xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5130-son qarorining qabul qilinishi bu muammoning yechimiga turtki bo'ldi [2]. Unda, qoida tariqasida, saraton kasalligini davolash paytida bolaning maktabga borishni davom ettirishi mumkinligi hamda maktab bolaning odatiy hayot tarzini saqlashga va uning ruhiy holatini tiklashga yordam berishi ko'rsatib o'tilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Gospital pedagogikasi" o'quv fanini o'qitishni yo'lga qo'yish hamda tibbiyot muassasalari qoshidagi maktablar tizimini rivojlantirish masalalari ham ushbu muammoning yechimiga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitish masalasi so'nggi yillarda maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikasi yo'nalishlarining muhim tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Mazkur muammoning nazariy-metodologik asoslari xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida turli jihatlaridan yoritilgan.

Xorijiy pedagogika fanida inklyuziv ta'lim nazariyasining rivojlanishida L. Florian va M. Ainscowning ilmiy ishlari alohida o'rin tutadi. Mualliflar ta'lim tizimining barcha o'quvchilar ehtiyojlariga moslashishi zarurligini asoslab, sog'lig'i tufayli ta'lim jarayonidan vaqtincha cheklangan bolalarning ham sifatli ta'lim olish

huquqi ta'minlanishi lozimligini ta'kidlaydilar. Olimlarning fikricha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar individual ta'lim yo'nalishlarini yaratish va o'quvchilarning ta'limdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi hisoblanadi [7, 45–52-b.].

Gospital pedagogikasi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda S.V. Sharikov, A.S. Obuxov, V.V. Vagarina va A.A. Filatovalarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Mualliflar kasalxona maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini tahlil qilib, uzoq muddat davolanayotgan bolalarni o'qitishda pedagogik moslashuvchanlik, individual yondashuv hamda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish zarurligini asoslab berganlar. Tadqiqotchilar tomonidan kasalxona sharoitida tashkil etilgan ta'lim bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirish va davolanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [6, 63–69-b.].

Rossiyalik olim Ye.A. Yamburg ta'limni insonparvarlashtirish konsepsiyasi doirasida sog'lig'i cheklangan bolalar bilan ishlashda pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ochib bergan. Uning fikricha, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, o'quv yuklamalarining individuallashtirilishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishga xizmat qiladi [8, 112–118-b.].

Mamlakatimizda gospital pedagogikasi va uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar ta'limi muammolarini o'rganishda D.R. Inogamovning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Olimaning tadqiqotlarida gospital pedagogikasining nazariy asoslari, kasal bolalar ta'limini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari hamda masofaviy ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari yoritilgan. Xususan, muallif uzoq muddat davolanayotgan bolalarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda raqamli ta'lim resurslari va interaktiv metodlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab bergan [3, 84–89-b.; 5, 56–62-b.].

Raqamli pedagogika va innovatsion ta'lim texnologiyalarining nazariy jihatlari I. Yusupov tomonidan keng tadqiq etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy ta'lim muhitida elektron platformalar, virtual sinflar, multimedia vositalari hamda masofaviy o'qitish texnologiyalari o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishga, bilimlarni individuallashtirishga va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi [4, 74–81-b.].

Mahalliy pedagogika fanida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi muammolari M.M. Ismoilova, G.Q. Karimova va D.R. Raxmonovalarning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Ular tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash masalalari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarning ta'lim ehtiyojlarini qondirishda kompleks yondashuvning zarurligini ko'rsatadi [9, 37–42-b.; 10, 55–60-b.].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'limning uzluksizligini ta'minlash, bilimlarni o'zlashtirish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini saqlab qolish hamda psixologik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda gospital pedagogikasi sharoitida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodik mexanizmlarini takomillashtirish, mahalliy tajribalarni umumlashtirish va ularni amaliyotga keng joriy etish masalalari yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslarini aniqlash maqsadida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalar tahlili asosida masofaviy ta'lim, raqamli platformalar va interaktiv metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri baholandi. **Natija**

Tadqiqot davomida uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'lim platformalari, virtual sinflar, multimedia vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, sog'lig'i sababli umumta'lim muassasalariga muntazam qatnasha olmaydigan o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalar ta'limning uzluksizligini ta'minlashda samarali

vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning individual imkoniyatlari va sog'lig'i holatidan kelib chiqib tashkil etilgan ta'lim mashg'ulotlari ularning o'quv motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Xususan, videodarslar, elektron ta'lim resurslari, interaktiv topshiriqlar va onlayn muloqot vositalari yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning faolligi an'anaviy yondashuvga nisbatan yuqori bo'ldi. O'quvchilar mustaqil ishlash, axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tajriba-sinov ishlari davomida uzoq muddat davolanayotgan o'quvchilar uchun tayyorlangan "Mustaqil ish daftari" hamda elektron o'quv materiallaridan foydalanildi. Mazkur vositalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, mavzularni o'zlashtirish darajasini oshirish va o'qituvchi bilan muntazam aloqani saqlab turishga xizmat qildi. Kuzatishlar natijasida o'quvchilarda o'zlashtirish ko'rsatkichlari, topshiriqlarni bajarish sifati va darslarga qiziqish darajasi oshganligi aniqlandi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Virtual muloqot vositalari orqali sinfdoshlari va o'qituvchilar bilan muntazam aloqada bo'lish imkoniyati ularda ijtimoiy yakkalanish hissining kamayishiga, o'ziga bo'lgan ishonchning ortishiga va jamoadagi o'rnini saqlab qolishiga yordam berdi. Bu esa, o'z navbatida, davolanish jarayonining samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tahlillar natijasida zamonaviy ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning raqamli kompetensiyasi, o'quv materiallarining sifatli ishlab chiqilganligi va ta'lim jarayonining individuallashtirilganligi bilan bog'liqligi aniqlandi. Individual o'quv dasturlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos kelgani sababli ularning bilimlarni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ldi.

Tadqiqot natijalari uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga, balki o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, psixologik barqarorligi va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qilishini ko'rsatdi. Mazkur texnologiyalarni hospital maktablari, tibbiyot muassasalari qoshidagi ta'lim markazlari hamda uyda yakka tartibda ta'lim olish tizimiga keng joriy etish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchilar ta'limida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi bir qator pedagogik ko'rsatkichlar asosida baholandi. Xususan, o'quv motivatsiyasi, o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash ko'nikmalari, darslardagi faollik, raqamli kompetensiyalar hamda ijtimoiy moslashuv darajasidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari davomida masofaviy ta'lim platformalari, elektron ta'lim resurslari, interaktiv metodlar va individual o'quv dasturlaridan muntazam foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ta'lim jarayonidagi faolligini kuchaytirish hamda mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchilar ta'lim samaradorligiga ta'siri

Ko'rsatkichlar	Tadqiqot boshida (%)	Tadqiqot yakunida (%)	O'sish (+/-)
O'quv motivatsiyasi darajasi	58	82	+24
O'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi	61	85	+24
Mustaqil ishlash ko'nikmalari	54	81	+27
Darslardagi faollik	57	84	+27
Raqamli vositalardan	49	86	+37

foydalanish kompetensiyasi			
Ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichi	63	83	+20

Jadvaldagi ma'lumotlar tajriba-sinov ishlari davomida masofaviy ta'lim platformalari, interaktiv metodlar va individual o'quv dasturlaridan foydalanish natijasida o'quvchilarda kuzatilgan ijobiy o'zgarishlarni aks ettiradi. Natijalarga ko'ra, ayniqsa raqamli kompetensiya (+37%) hamda mustaqil ishlash ko'nikmalari (+27%) bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilgan. Bu esa zamonaviy ta'lim texnologiyalarining uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar ta'limida samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan hamohang bo'lib, raqamli ta'lim vositalarining o'quvchilarning bilim olish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, uzoq muddatli davolanish sababli an'anaviy ta'lim muhitidan uzoqlashgan bolalarda o'quv motivatsiyasining pasayishi, tengdoshlari bilan muloqotning cheklanishi hamda bilimlarni o'zlashtirish sur'atining sekinlashishi kuzatiladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa ushbu salbiy holatlarni ma'lum darajada bartaraf etishga xizmat qiladi. Xususan, masofaviy ta'lim platformalari va virtual sinflar o'quvchilarga dars jarayonlarida muntazam ishtirok etish, o'qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotni davom ettirish hamda o'quv dasturidan ortda qolmaslik imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan interaktiv metodlar va elektron ta'lim resurslari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishga yordam berdi. Ayniqsa, videodarslar, multimedia materiallari, virtual topshiriqlar va mustaqil ta'limga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Bu holat o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham samarali egallashiga imkon yaratdi. Natijada o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi va mustaqil ishlash kompetensiyalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining samaradorligi faqat texnik vositalarning mavjudligi bilan emas, balki pedagogning kasbiy mahorati va raqamli kompetensiyasi bilan ham bevosita bog'liqdir. O'qituvchining elektron ta'lim resurslarini yaratish, masofaviy ta'lim platformalaridan samarali foydalanish va individual yondashuv asosida darslarni tashkil etish ko'nikmalari ta'lim sifati oshirishining muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli bo'lajak gospital pedagoglari va amaliyotchi o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda pedagog, otana va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini ham ko'rsatdi. Ta'lim va davolash jarayonlarining o'zaro uyg'unligi o'quvchining jismoniy imkoniyatlari, psixologik holati hamda individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish imkonini beradi. Bunday hamkorlik bolalarning ta'limga moslashuvini yengillashtirish, ruhiy holatini barqarorlashtirish va ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, barcha hududlarda internet tarmog'i va zamonaviy texnik vositalarning yetarli darajada mavjud emasligi, ayrim pedagoglarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tayyorgarligi pastligi hamda maxsus elektron ta'lim resurslarining yetishmasligi ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun gospital pedagogikasi yo'nalishi bo'yicha maxsus metodik ta'minotni yaratish, raqamli ta'lim platformalarini takomillashtirish hamda pedagoglarning malakasini muntazam oshirib borish zarur.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili zamonaviy ta'lim texnologiyalarini uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar ta'limiga keng joriy etish nafaqat o'quv faoliyati samaradorligini oshirishga, balki bolalarning ijtimoiylashuvi, psixologik qo'llab-quvvatlanishi va hayot sifatini yaxshilashga ham xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni sifatli ta'lim bilan qamrab olish zamonaviy pedagogikaning muhim ijtimoiy va ta'limiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida o'rganilgan nazariy manbalar hamda tahlil qilingan pedagogik tajribalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalari mazkur toifadagi o'quvchilarning uzluksiz ta'lim olish huquqini ta'minlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Masofaviy ta'lim platformalari, virtual sinflar, elektron ta'lim resurslari va interaktiv metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini saqlab qolish, bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ta'lim muhiti o'quvchilarning tengdoshlari va pedagoglar bilan muloqotini qo'llab-quvvatlab, ularning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitish samaradorligi ta'lim jarayonining individuallashtirilishi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, maxsus o'quv-metodik ta'minot hamda tibbiy-pedagogik hamkorlik darajasi bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek, gospital pedagogikasi amaliyotida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini maqsadli va tizimli qo'llash bolalarning ta'limdan uzilib qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu asosda uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun maxsus raqamli ta'lim platformalarini takomillashtirish, gospital pedagoglari va uyda ta'lim beruvchi o'qituvchilarning malakasini oshirish, individual o'quv dasturlarini keng joriy etish hamda ta'lim, tibbiyot va oila hamkorligini mustahkamlash mazkur yo'nalishning ustuvor vazifalari sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholiga gematologik va onkologik xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-5130-son qarori. – 2021-yil 27-may // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. Inogamova D. R. Uzoq muddatli davolanayotgan kasal bolalarga ta'lim berishda «Gospital pedagogika» fanining ahamiyati // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2023. – № 10. – B. 84–89.
4. Yusupov I. *Raqamli pedagogika va innovatsion ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – 156 b.
5. Inogamova D. R. *Gospital pedagogikasi va masofaviy ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: Fan, 2022. – 132 b.
6. Шариков С. В., Обухов А. С., Вагарина В. В., Филатова А. А. Профессионально-личностные позиции педагогов госпитальных школ // *Педагогика*. – Москва, 2020. – Т. 84. – № 10. – С. 63–69.
7. Florian L., Ainscow M. *Inclusive Education: Theory and Practice*. – London: Sage Publications, 2018. – 256 p.
8. Ямбург Е. А. *Педагогика, основанная на культуре достоинства*. – Москва: Просвещение, 2019. – 320 с.
9. Ismoilova M. M. *Maxsus pedagogika asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 184 b.
10. Karimova G. Q. *Inklyuziv ta'lim nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 168 b.
11. Raxmonova D. R. *Sog'lig'i cheklangan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash*. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 145 b.
12. UNESCO. *Education for All: Global Monitoring Report*. – Paris: UNESCO Publishing, 2019. – 420 p.
13. United Nations. *Convention on the Rights of the Child*. – New York: United Nations, 1989. – 54 p.